Ilm-fanda ayollar: yutuqlar va yangi imkoniyatlar

2025-yilning 7-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti tomonidan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi bilan hamkorlikda “Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni”ga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Konferensiyada O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, Jamoat xavfsizligi universiteti, Bojxona instituti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat transport universiteti, Termiz davlat universiteti, Qoraqalpoq davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, Namangan davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti professor-o‘qituvchilari, akademik hamjamiyat hamda vazirlik va idoralar vakillari ishtirok etdi.







Konferensiyani Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori, akademik A.Saidov ochib berdi. A.Saidov o‘z kirish so‘zida O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquqlarini ta’minlash borasida so‘nggi yillarda misli ko‘rilmagan tarixiy ishlar amalga oshirilganligi, ayniqsa, mamlakatimiz xotin-qizlarining ilm-fan sohasidagi huquqlarini ta’minlash borasida O‘zbekiston zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarni to‘la bajarib kelayotganligi, bu borada samarali milliy mexanizmlar joriy etilganligi va ular asosida xotin-qizlarning konstitutsiyaviy huquqlari ta’minlanayotganligini alohida qayd etib o‘tdi.

Konferensiya yakunida bir qator olima ayollar taqdirlandi.






SERTIFIKAT


SERTIFIKAT